



O'ZBEKISTONDA ERKAKLAR VA AYOLLARNING YOSHGA DOIR PENSIYAGA CHIQUISHIDA TENGLIK PRINSIPINI TA'MINLASH MASALALARI

PhD Xonturayev Bobur Azimovich
"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti
ORCID: 0000-0002-8814-0053
idmon.88@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif tomonidan erkaklar va ayollarning yoshga doir pensiyaga chiqishida tenglik prinsipini ta'minlash masalasi bo'yicha ilmiy tadqiqot amalga oshirildi. Tadqiqotda statistik ma'lumotlar, xorijiy mamlakatlarning tajribalari, jamoatchilik fikri va ekspert so'rovlari asosida erkaklar va ayollar uchun pensiya yoshini tenglashtirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida fuqarolarning fikrini aniqlash, shuningdek, O'zbekiston taraqqiyotining zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarida, fuqarolarning fikriga ko'ra, pensiyaga chiqish uchun eng maqbul bo'lgan yosh senzini belgilash tahlil asosida baholab chiqildi.

Kalit so'zlar: gender farqlari, demografik tendentsiyalar, aholining qarishi, umr ko'rish davomiyligi, pensiya tizimi, qarish demografiyasi, genderga xos tahlil, pensiya yoshi siyosati, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari.

ПРОБЛЕМЫ РЕАЛИЗАЦИИ РАВЕНСТВА ПЕНСИОННОГО ВОЗРАСТА ДЛЯ МУЖЧИН И ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ

PhD Хонтураев Бобур Азимович
НИИ «Семья и гендер»

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности гендерно-демографического анализа изменений в возрастной структуре населения. Изучая глобальные тенденции старения населения, мы обнаружили различия в воздействии старения на мужчин и женщин. Исследование показывает, что женщины, как правило, живут дольше, но страдают от ряда хронических заболеваний, а у мужчин высокий уровень смертности, но в более молодом возрасте. Признание и оценка таких гендерных особенностей важны при разработке соответствующих мер в области здравоохранения и систем социальной поддержки. Результаты исследования способствуют лучшему пониманию проблемы старения населения и признанию того факта, что гендерная проблематика имеет значение при изменении демографической политики в отношении социального старения.

Ключевые слова: гендерное неравенство, демографические закономерности, старение населения, продолжительность жизни, пенсионная система, динамика старения населения, гендерно-ориентированный анализ, правила выхода на пенсию, структуры социальной поддержки.

CHALLENGES IN IMPLEMENTING EQUALITY IN RETIREMENT AGE FOR MEN AND WOMEN IN UZBEKISTAN

*PhD Khonturayev Bobur Azimovich
Research Institute "Family and Gender"*

Abstract. *This article presents scientific research addressing the notion of equality in the retirement age for men and women. The research evaluated citizens' opinions on the feasibility of equalizing the retirement age for men and women, considering statistical data, international experiences, public opinion, and expert surveys, alongside the contemporary socio-economic conditions of Uzbekistan's development, to determine the optimal retirement age through analysis.*

Keywords: *gender disparities, demographic patterns, population aging, longevity, pension framework, aging population dynamics, gender-focused analysis, retirement age regulations, social support structures.*

Kirish.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar orasida pensiya tizimini isloh qilish alohida o'rin tutadi. Pensiya tizimi har qanday davlatning ijtimoiy siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U fuqarolarning keksalikda munosib hayot kechirishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, jamiyatning barqarorligi va farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichdir. Bugungi kunda O'zbekistonda pensiya tizimini isloh qilish, xususan, ayollar va erkaklar uchun pensiya yoshini tenglashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib bermoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Olimlarning fikriga ko'ra, ba'zi mamlakatlarda ayollar uchun erta pensiya yoshlarining dastlabki joriy etilishi oilaviy majburiyatlardan kelib chiqadigan maishiy mas'uliyatni va qisqartirilgan martabani tan olish uchun mo'ljallangan (Jefferson, 2009). Shunga qaramay, yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bu siyosatlar gender stereotiplarini beixtiyor kuchaytiradi va pensiya davrida daromadlar tengsizligiga hissa qo'shadi (Ginn, 2003).

Genderga bog'liq bo'lmagan pensiya yoshini baholash uchun asos sifatida adabiyotlarda "adolat" tushunchasiga tez-tez murojaat qilinadi. Pensiya yoshidagi raqamli tenglikdan oshib ketish va kengroq iqtisodiy nomutanosibliklarni, jumladan, gender to'lovlari va pensiya jamg'arishdagi nomutanosibliklarni bartaraf etish zarurati Estevez-Abe va Xobson (2011) kabi olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda ta'kidlangan. Erkaklar bilan solishtirganda, ayollar umr bo'yi kam ish haqi va tez-tez martaba uzilishlari natijasida kamroq pensiya nafaqalarini yig'adilar, bu esa keksa ayollar orasida qashshoqlik darajasining oshishiga olib keladi (Frericks va boshq., 2009). Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pensiya tengligiga erishish nafaqat yoshni o'zgartirishni talab qiladi; shuningdek, ishchi kuchi ishtiroki va pensiya tizimlariga ta'sir ko'rsatadigan tizimli tengsizliklarni hal qilishni talab qiladi (Fultz, 2011).

Institutsional va madaniy elementlarning ahamiyati yana bir muhim nuqtai nazardir. Orloff (1993) va boshqalar tomonidan olib borilgan pensiya siyosatining qiyosiy baholariga ko'ra, farovonlik darajasi kuchliroq va genderni sezgir pensiya o'zgarishlariga ega bo'lgan mamlakatlarda pensiya natijalaridagi gender farqlari unchalik muvaffaqiyatli bo'lmagan. Ushbu o'zgarishlar ko'pincha omon qolganlar uchun nafaqalar, g'amxo'rlik kreditlari va erkaklar va ayollarni majburiyatlarni bo'lishishga undaydigan qonunlarni o'z ichiga oladi. Feministik akademiklar bu kontekstda ayollarning butun hayoti davomida bajaradigan ko'plab iqtisodiy majburiyatlarini, shuningdek, to'lanmagan mehnatni o'z ichiga olgan pensiya siyosatini har tomonlama qayta ko'rib chiqishni himoya qiladi (Daly, 2020).

Pensiya tizimining barcha fuqarolar uchun ochiq va foydalanish mumkin bo'lishini nazarda tutadi. Ya'ni, har bir fuqaro, uning ijtimoiy holati yoki ish stajidan qat'i nazar, keksalikda ijtimoiy himoyaga ega bo'lishi kerak (Hyde, & Dixon, 2009). Pensiya tizimi adolatli bo'lishi kerak, ya'ni pensiya miqdori shaxsning mehnat staji va to'lagan badallariga mutanosib bo'lishi lozim. Bu tamoyil "kim ko'p hissa qo'shsa, ko'proq oladi" degan g'oyaga asoslanadi (Botos, & Botos, 2020). Pensiya tizimi uzoq muddatli barqarorlikka ega bo'lishi kerak. Bu pensiya tizimining moliyaviy barqarorligi va uning davlat byudjetiga ortiqcha yuk bo'lmasligini ta'minlaydi (Raitano, 2007). Pensiya tizimi shaffof bo'lishi, ya'ni uning ishlash mexanizmlari, pensiya hisoblash usullari va boshqa muhim ma'lumotlar jamoatchilik uchun ochiq bo'lishi kerak (Benio, & Ratajczak-Tuchołka, 2007). Pensiya tizimi o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy va demografik sharoitlarga moslashuvchan bo'lishi lozim. Bu tizimning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga yordam beradi (Bridgen, Meyer, & Riedmuller, 2007).

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda statistik ma'lumotlar, xorijiy mamlakatlarning tajribalari, jamoatchilik fikri va ekspert so'rovlari asosida erkaklar va ayollar uchun pensiya yoshini tenglashtirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida fuqarolarning fikrini aniqlash, shuningdek, O'zbekiston taraqqiyotining zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarida, fuqarolarning fikriga ko'ra, pensiyaga chiqish uchun eng maqbul bo'lgan yosh senzini belgilash tahlil asosida baholab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ayollar erkaklarnikidan ko'ra ko'proq umr ko'rishlari va ish haqi to'lanmaydigan ishda, qisqaroq ishlashlari sababli erta nafaqaga chiqish ayollarning keksa yoshdagi moliyaviy xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayollar nafaqaga chiqishdan bir necha yil oldin eng yuqori daromadga ega bo'lishlari mumkin va natijada jamg'armalar yaratish hamda ijtimoiy sug'urta to'lovlarini oshirish imkoniyatlaridan voz kechishlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, tadqiqotlar mehnat muddati va pensiya daromadlari o'rtasidagi aniq bog'liqlikni ko'rsatmoqda, ya'ni ishlash muddati qanchalik uzoq bo'lsa, oylik pensiya miqdori shunchalik yuqori bo'ladi (Sefton, & other, 2011), 118 ta davlatda ayollarning pensiya miqdoriga ta'sir qiluvchi qonunlar haligacha tenglashtirilmagan, 11 ta davlatda xususiy sektor xodimlari uchun majburiy pensiya ta'minoti tizimi joriy etilmaydi, shuning uchun Pensiya indikatori bo'yicha savollarda ushbu mamlakatlarga ball berilmaydi (Abatemarco, Lagomarsino, & other, 2023).

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risida"⁴⁶gi Qonunida fuqarolarga "umumiy asoslarda" yoshga doir pensiya olish huquqi ayollarga 55 yoshdan, erkaklarga 60 yoshdan deb belgilangan.

Mamlakatimizda ayollarga barcha sohalarda imtiyozlar berilgan. Jumladan pensiya ta'minoti tizimida erkaklarga nisbatan yoshga doir pensiya olishda umumiy belgilangan yosh erkaklarga nisbatan 5 yil kam belgilangan, talab etilgan umumiy ish staji 7 yil belgilangan, shunda yana ayollarni bola parvarishlash davri ham ish stajiga kiritilishi belgilangan. Buning natijasida ayollarning o'rtacha umr ko'rish yoshi avvalgi yillarga nisbatan o'sib bormoqda. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda O'zbekiston Respublikasida doimiy aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 74,7 yoshni tashkil etdi. 2024-yilning 1 yanvar holatiga o'rtacha umr ko'rish davomiyligi ayollar uchun – 76,9 yosh va erkaklar uchun – 72,5 yoshni tashkil qilmoqda⁴⁷.

Demak, ayollarni o'rtacha umr ko'rish yoshi 76,9 yilni tashkil etgan holda, 55 yoshda pensiya tayinlanishini hisobga olinsa pensiyadan keyingi umr ko'rish muddati 21,9 yilni tashkil etadi. Erkalarda esa o'rtacha umr ko'rish yoshi 72,5 yilni tashkil etsa, 60 yoshga to'lganida

⁴⁶ <https://lex.uz/mact/112314>

⁴⁷ gender.stat.uz

pensiya tayinlanishini inobatga olinsa, pensiyadan keyin o'rtacha hisobda 12,4 yil umr ko'rishlarini anglatadi. Bu holatda ham o'rtadagi farq 2 barobarni tashkil etadi.

Bu holat pensiya yoshini ham qayta ko'rish kerakligini anglatmoqda. Ayollarga talab etilgan ish staji 20 yil deb belgilanganligi sababli, doim pensiya miqdori erkaklarga nisbatan ko'p tayinlanmoqda. Bu esa gender tengligini buzilishi deb hisoblaymiz, chunki ayollarni e'zozlash va erkaklarga nisbatan kam ishlashligi va bola parvarishida bo'lishini qoplash uchun va pensiya miqdorini erkaklarning pensiya miqdorigi tenglashtirish maqsadida, ularga bola parvarishlash davrini ish stajiga qo'shish va erkaklarga nisbatan 5 yil oldin pensiyaga chiqish imtiyozlari berilgan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi "pensiya" ko'rsatkichi bo'yicha 50 ball to'plagan⁴⁸

Erkaklar va ayollar to'liq pensiya ta'minoti bilan nafaqaga chiqishlari mumkin bo'lgan yosh bir xilmi?		
Javob	Baho	Huquqiy asos
Yo'q	0	
Yosh (ayollar)	55	Mehnat kodeksi, 289-modda
Yosh (erkaklar)	60	Mehnat kodeksi, 289-modda

Erkaklar va ayollar qisman pensiya ta'minoti bilan nafaqaga chiqishlari mumkin bo'lgan yosh bir xilmi?		
Javob	Baho	Huquqiy asos
Yo'q	0	
Yosh (ayollar)	55	«Davlat pensiya ta'minoti to'g'risida» 1993 yil 3 sentyabrdagi 938-XII-sonli Qonun, 29-modda
Yosh (erkaklar)	60	«Davlat pensiya ta'minoti to'g'risida» 1993 yil 3 sentyabrdagi 938-XII-sonli Qonun, 29-modda

Erkaklar va ayollar uchun majburiy pensiya yoshi bir xilmi?		
Javob	Baho	Huquqiy asos
Ha	1	
Yosh (ayollar)	60	Mehnat kodeksining 100-moddasi 7-bandi; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ-4235-son qarori;
Yosh (erkaklar)	60	Mehnat kodeksining 100-moddasi 7-bandi;

Bolalarni parvarish qilish tufayli ishda bo'lmagan davrlar pensiya nafaqalarida hisobga olinadimi?		
Javob	Baho	Huquqiy asos
Ha	1	«Davlat pensiya ta'minoti to'g'risida» 1993 yil 3 sentyabrdagi 938-XII-sonli Qonun, modda-37 (g)

⁴⁸ <https://wbl.worldbank.org/en/data/exploreconomies/uzbekistan/2024>

Shuningdek, “**Ayollar, biznes va qonun**”⁴⁹ indeksining 2024-yilgi ko‘rsatkichi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi pensiya ko‘rsatkichi bo‘yicha 50 ball to‘plagan. Pensiya ko‘rsatkichi bo‘yicha 4 ta savol qo‘yilgan:

- erkaklar va ayollar to‘liq pensiya ta‘minoti bilan nafaqaga chiqishlari mumkin bo‘lgan yosh bir xilmi?
- erkaklar va ayollar qisman pensiya ta‘minoti bilan nafaqaga chiqishlari mumkin bo‘lgan yosh bir xilmi?
- erkaklar va ayollar uchun majburiy pensiya yoshi bir xilmi?
- bola parvarishi bilan bog‘liq bo‘lmagan muddatlar pensiya ta‘minotida hisobga olinadimi?

Ushbu savollar orasidan “**erkaklar va ayollar to‘liq pensiya ta‘minoti bilan nafaqaga chiqishlari mumkin bo‘lgan yosh bir xilmi**”, “**erkaklar va ayollar qisman pensiya ta‘minoti bilan nafaqaga chiqishlari mumkin bo‘lgan yosh bir xilmi**” degan savollarga yetakchi ekspertlar yo‘q deb javob qaytarishgan.

Buyuk Britaniya (Budd, & Campbell, 1997)da pensiya yoshini tenglashtirish jarayoni 1995-yilda boshlangan. 1995-yil: Qonun qabul qilindi, ayollar uchun pensiya yoshini 60 dan 65 gacha oshirish rejalashtirildi, 2010-2018-yillar: Ayollar uchun pensiya yoshi bosqichma-bosqich 60 dan 65 gacha oshirildi, 2018-2020-yillar: Ham erkaklar, ham ayollar uchun pensiya yoshi 66 gacha oshirildi, 2026-2028-yillar: Pensiya yoshi 67 gacha oshirilishi rejalashtirilgan.

Germaniyada (Schludi, 2005) pensiya yoshini tenglashtirish jarayoni 1992-yilda boshlangan. 1992-yil: Qonun qabul qilindi, ayollar uchun pensiya yoshini 60 dan 65 gacha oshirish rejalashtirildi, 2000-2012-yillar: Ayollar uchun pensiya yoshi bosqichma-bosqich 60 dan 65 gacha oshirildi, 2012-2029-yillar: Ham erkaklar, ham ayollar uchun pensiya yoshi 67 gacha oshirilmoqda.

Ba‘zi davlatlarda ayollarning pensiya yoshini erkaklarnikiga tenglashtirish bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, Bolgariya 2037-yilga kelib erkaklar va ayollar uchun pensiya yoshini bosqichma-bosqich 65 yoshga oshiradi, erkaklar uchun pensiya yoshi 2018-yil 1-yanvardan boshlab har bir kalendar yili bir oyga o‘sdi, ayollar uchun yosh ikki oyga oshdi, 2029-yilgacha har bir kalendar yili va keyin 65 yoshga yetgunga qadar har bir kalendar yili 3 oyga ko‘payadi.

2-jadval

Pensiya yoshini bir xil targ‘ib qiluvchi ayrim mamlakatlarning siyosat choralari⁵⁰

Mamlakatlar	Islohotlarning mazmuni
Argentina	Argentina ayollar va erkaklar uchun majburiy pensiya yoshini (70 yosh) tenglashtirgan. Shuningdek, Argentinada nafaqaga chiqishda bola parvarishi tufayli yo‘qotilgan davrni mehnat stajiga qo‘shish aniq belgilab qo‘yilgan.
Italiya	Italiya erkaklar va ayollar to‘liq pensiya ta‘minoti bilan nafaqaga chiqishi mumkin bo‘lgan yoshni (67 yosh) tenglashtirgan.
Kambodja	Kambodjada yoshga doir to‘liq pensiya ta‘minoti bilan nafaqaga chiqishda ayollar va erkaklar uchun bir xil yosh belgilangan tizim joriy qilingan. Qonunda ayollar va erkaklar qisman pensiya ta‘minoti bilan nafaqaga chiqishi mumkin bo‘lgan yosh ko‘rsatilmagan.
Bahrayn	Bahrayn pensiya nafaqalarida bola parvarishi tufayli yo‘q bo‘lgan davrlarni aniq hisobga oladi.
Sloveniya	Sloveniya erkaklar va ayollar to‘liq pensiya ta‘minoti bilan pensiya olishlari mumkin bo‘lgan yoshni (65 yosh) tenglashtirgan.
Braziliya	Braziliya qisman pensiya ta‘minoti bilan nafaqaga chiqish imkoniyatini bekor qilingan. Ilgari erkaklar va ayollar qisman pensiya ta‘minoti bilan nafaqaga chiqishi mumkin bo‘lgan yosh teng bo‘lmagan.

⁴⁹ <https://wbl.worldbank.org/en/data/exploreconomies/uzbekistan/2024>

⁵⁰ Муаллиф ишланмаси. (<https://wbl.worldbank.org>)

Bahrayn o'zining ijtimoiy sug'urta qonuniga o'zgartirish kiritib, nafaqaga chiqqanda erkaklar ham, ayollar ham to'liq pensiya olishi mumkin bo'lgan yoshni tenglashtirdi. Ilgari Bahrayndagi ayollar erkaklarnikidan besh yil oldin 55 yoshda nafaqaga chiqishgan. Endi erkaklar ham, ayollar ham 60 yoshda nafaqaga chiqadilar. 107 ta davlatda mavjud pensiya tizimi nafaqalarni hisoblashda bolalarni parvarish qilish (ya'ni tug'uruq va tug'ish ta'tillari) uchun ishdan bo'shatilgan davrlarni hisobga oladi. Ijtimoiy siyosat va tug'uruq ta'tillari nafaqalari ko'lami onalarning mehnat bozoridagi mavqeyini va natijada pensiya miqdorini aniqlash uchun juda muhimdir. Avstraliya va Qo'shma Shtatlar bu davrlarni hisobga olmaydigan yagona OECD yuqori daromadli mamlakatlari hisoblanadi⁵¹.

Gender pensiya farqi, asosan, ayollarning erkaklarnikiga qaraganda kamroq ish haqi olishining uzoq muddatli ta'siri bilan bog'liq bo'lgan gender ish haqi farqi bilan bog'liq. Gender asosidagi ish haqini kamsitishning noqonuniyligiga qaramasdan, ish haqi va pensiyalardagi nomutanosiblikning davom etayotgan va ortib borishiga bir qancha ijtimoiy va institutsional omillar sabab bo'ladi.

Erkaklar va ayollar uchun pensiya yoshini tenglashtirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida fuqarolarning fikrini aniqlash maqsadida jamoatchilik fikri so'rovi 2024-yilning aprel may oylarida o'tkazildi. Mamlakatdagi statsionar va mobil telefon aloqasining barcha abonentlari orasidan tanlab olingan 640 nafar respondent miqdoridagi tasodifiy stratifikatsiyalangan tanlov usuli qo'llanildi.

So'ralganlarning aksariyat ko'pchiligi (78,1%) amaldagi pensiya tizimi muayyan o'zgarishlarga muhtoj, degan fikrda va o'z fikrini qonunchilik mamlakat taraqqiyotining o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini aks ettirishi zarur, deb izohladi. 17,4% so'rov ishtirokchilari ushbu nuqtai nazarga qo'shilmadi. Pensiya qonunchiligini zamonaviy voqelikka moslashtirish zarurligiga xotin-qizlar erkaklarga qaraganda sezilarli darajada ko'proq e'tibor berishdi (tegishli ravishda 83,6% va 73,8%).

Respondentlarning pensiya yoshidagi fuqarolarga nisbatan davlatning moliyaviy majburiyatlarini pasaytirishga yo'l qo'yib bo'lmasligi haqidagi dalillari muayyan tartibda va quyidagicha ko'rinishda ifodalandi:

- Keksa avlod vakillari o'zlari yashab, mehnat qilgan jamiyat tomonidan hurmat va qo'llab-quvvatlanishga munosibdir, aholining ushbu toifasiga iltifotsizlik qilish salbiy ijtimoiy va axloqiy oqibatlariga olib kelishi mumkin – 34,8%;

- Pensionerlarni munosib turmush sharoitlari bilan ta'minlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining alohida ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi – 29,7 %;

- Davlat o'z fuqarolarining, jumladan, uzoq vaqt davomida jamiyat va davlat rivojiga hissa qo'shgan keksa kishilarning farovonligi uchun mas'uldir – 24,9 %.

Xulosa va takliflar.

Erkaklar va ayollar uchun pensiya yoshini tenglashtirish bo'yicha amalga oshirilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Amaldagi pensiya qonunchiligi va unda pensiyaga chiqishning nazarda tutilgan muddatlari so'ralganlarning yarmidan ko'prog'ini to'liq darajada qoniqtiradi (55,0%), har to'rtinchi ishtirokchi (25,8%) amaldagi tartibdan qisman qoniqadi, har oltinchi respondent (15,9%) mavjud mexanizmni nomukammal deb baholaydi.

2. Aksariyat ko'pchilik respondentlarning (78,1%) nuqtai nazari bo'yicha amaldagi pensiya tizimi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardagi o'zgarishlarga munosabat bildirishi kerak, shu tufayli u muayyan tuzatishlarni talab etadi.

3. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, 30,8% respondentlar pensiyaga chiqishda erkaklar va ayollar huquqlarini tenglashtirishni maqsadga muvofiq va o'z vaqtida, deb hisoblaydi, 68,6% respondentlar bunday istiqbolga salbiy munosabatdalar. Shu bilan birga, respondentlarning

⁵¹ <https://www.oecd-ilibrary.org/sites/ed6f08dc-en/index.html?itemId=/content/component/ed6f08dc-en>

ko'pchiligi (83,6%) erkaklar uchun ham, ayollar uchun ham pensiyaga chiqishning eng maqbul yoshi sifatida 55 yoshni ko'rsatdi.

4. Respondentlarning aksariyat ko'pchiligi ayollarning pensiyaga chiqish yoshini oshirish imkoniyatini - bo'lishi mumkin emas (87,3%), 5,8% so'rov ishtirokchilari esa bu ehtimollikni bo'lishi mumkin, deb hisoblaydi. 85,0% respondentlar erkaklar uchun pensiyaga chiqish yoshini oshirishning ehtimoliy istiqbolini salbiy qabul qildilar. 7,5% respondentlar bunday o'zgarishlarga tushunish bilan munosabatda bo'lishdi.

5. O'tkazilgan so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, 47,5% respondentlar davlatning pensiya yoshidagi fuqarolar oldidagi ijtimoiy majburiyatlari o'zgarmas, qat'iy hisoblanadi, degan fikrda, 48,0% respondentlar esa pensionerlar sonining oshib borishi munosabati bilan davlat o'ziga nisbatan o'sib borayotgan moliyaviy yuklamani kamaytirish chora-tadbirlarini ko'rishi zarur, deb hisoblaydi.

6. Ayollarga talab etilgan ish staji 20 yil deb belgilanganligi sababli, doim pensiya miqdori erkaklarga nisbatan ko'p tayinlanmoqda. Bu esa gender tengligini buzilishi deb hisoblaymiz, chunki ayollarni e'zozlash va erkaklarga nisbatan kam ishlashligi va bola parvarishida bo'lishini qoplash uchun va pensiya miqdorini erkaklarning pensiya miqdorigi tenglashtirish maqsadida, ularga bola parvarishlash davrini ish stajiga qo'shish va erkaklarga nisbatan 5 yil oldin pensiyaga chiqish imtiyozlari berilgan. Yuqoridagi imtiyozlar ayollarni erkaklardan ko'p pensiya olish uchun emas, aksincha pensiya miqdorini kam bo'lib qolmasligini ta'minlash maqsadida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Antonio Abatemarco, Elena Lagomarsino, Maria Russolillo. (2023) "Gender Pension Gap in EU Countries: A Between-Group Inequality Approach." *Risks*, 11(3).

Benio, M., & Ratajczak-Tuchołka, J. (2007). *The Polish pension system and social inclusion. Private Pensions versus Social Inclusion*, 193-219.

Botos, J., & Botos, K. (2020). *Pension system in the changing society. Public Finance Quarterly=Pénzügyi Szemle*, 65(1), 7-23.

Bridgen, P., Meyer, T., & Riedmuller, B. (2007). *The British pension system and social inclusion. Private pensions versus social inclusion*, 47-78.

Budd, A., & Campbell, N. (1997). *The roles of the public and private sectors in the UK pension system. HM Treasury*.

Daly, M. (2020). *"Gender Inequality and Welfare States in Europe."* Edward Elgar Publishing.

Estévez-Abe, M., & Hobson, B. (2011). *"Gender and the Varieties of Capitalism: Family Policies and Women's Economic Citizenship."* *Social Politics*.

Frericks, P., Maier, R., & de Graaf, W. (2009). *"Pension Reforms, Working Patterns and Gender Pension Gaps in Europe."* *Gender, Work & Organization*.

Fultz, E. (2011). *"Pension Crediting for Caregivers in a Comparative Perspective."* *International Labour Review*.

Ginn, J. (2003). *"Gender, Pensions and the Lifecourse: How Pensions Need to Adapt to Changing Family Forms."* Policy Press.

Hyde, M., & Dixon, J. (2009). *A just retirement pension system: Beyond neoliberalism. Poverty & Public Policy*, 1(1), 1-25.

Jefferson, T. (2009). *"Women's Retirement Incomes and Employment Choices."* *Feminist Economics*.

Orloff, A. S. (1993). *"Gender and the Social Rights of Citizenship: The Comparative Analysis of Gender Relations and Welfare States."* *American Sociological Review*.

Raitano, M. (2007). *The Italian pension system and social inclusion. Private pensions versus social inclusion*, 168-92.

Schludi, M. (2005). *The reform of Bismarckian pension systems: A comparison of pension politics in Austria, France, Germany, Italy and Sweden (p. 312).* Amsterdam University Press.

Sefton, T., Evandrou, M., Falkingham, J., & Vlachantoni, A. (2011). *The relationship between women's work histories and incomes in later life in the UK, US and West Germany. Journal of Social Policy*, 40(2), 297-316. doi:10.1017/S0047279410000726